

# Qoraqalpog'iston Respublikasi statistika boshqarmasi

## 2018 yil yanvar-fevral oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasining sanoat ishlab chiqarishi


### RAQAMLAR:

- Sanoat ishlab chiqarish hajmi **1409,7mlrd. so'mni**, o'sish **11.7 %ni** tashkil etdi
- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati – **105.0%**
- Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi – **11.9 %**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2018 yilning yanvar-fevral oylarida respublika korxonalarini tomonidan 1409.7mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 111.7 % ni tashkiletdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'shishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qaytaishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 11.1 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning –16.3 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 15.8 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning –17.2 % ga o'sishi hisoblanadi.

### 2018 yil yanvar-fevral oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi



Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 51,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqa rilgan sanoat mahsulotlari hajmining 3.7 % ni tashkil etdi.



2018 yilning yanvar oyida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1249.1 mlrd .so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 88.6 % ni tashkil etdi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 97.4 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 6.9 % ni) tashkil etdi.




Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 11.7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,8 % ni) tashkil etdi.

## **Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish**


Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 168.2mlrd.so'mni tashkil etdi va 2017 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 5.0 % ga o'sishi ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 11.9 % ni tashkil etdi.

### **2018 yilning yanvar-fevral oyida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi va o'sish sur'atlari**



2017 yilning yanvar-fevraloylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 26.1 % dan 2018 yilning yanvar-fevral oylarida 26.9 % ga oshishi kuzatilmoqda.


**Yanvar-fevral oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi,  
% da**



**Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.**

Respublika sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Nukus sh. (respublika sanoat ishlab chiqarish hajmning 70,4 % ulushini), Xujayli (8.9 %), Amudaryo va Mo'ynoq (3.2 %), Beruniy (2.8 %), To'rtko'l (2.4 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**2018 yilning yanvar-fevral oyida hududlarning  
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, % da**




Shu bilan birga eng kam ulush Taxiatush (0.05 %), Shumonoy (0.2 %), Taxtako'pir (0.3 %), Chimboy ва Qarao'zak (0.8%) tumanlariga to'g'ri keladi.

Raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha yuqori texnologiyali loyihalarni amalga oshirish natijasida Amudaryo (2017 yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan 137.0 % ga), Mo'ynoq (119.0 % ga), Qonliko'l (117.7 % ga), Qarao'zak (112.5 % ga), Ellikqal'a (112.9 % ga) tumanlarida sezilarli darajada ishlab chiqarish hajmining oshishi ta'minlandi.

### ***2018 yilning yanvar-fevral oylarida hududlarda sanoat ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'atlari***

*(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)*




### ***Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.***

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda keskin faollashgani natijasida ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan 101.0 % ga oshishini ta'minladi, o'z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 11.9 % tashkil etmoqda.

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Qarao'zak, Nukus, Taxiatush, Taxtako'pir, Shumonoy (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100.0 %), Chimboy (84.0 %), Qo'nq'irot (61.1 %), To'rtko'l (45.6 %) va Beruniy (39.0) tumanlarida kuzatildi.


**2018 yilning yanvar-fevral oyida hududlar bo'yicha kichik biznesning  
sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda ulushi, % da**



**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**

Bugungi kunda respublikada 1515 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'ssatayotgan bo'lib, ulardan 426 tasi Nukus shahrida, 184 tasi To'rtko'l, 145 tasi Beruniy, 104 tasi Amudaryo, 100 tasi Ellikqal'a, 92 tasi Qo'ng'irot, 91 tasi Xujayli, 77 tasi Qarao'zak, 49 tasi Shumonoy, 47 tasi Chimboy, 44 tasi Mo'ynoq, 42 tasi Nukus, 35 tasi Qonliko'l, 34 tasi Taxiatosh, 28 tasi Kegeyli va 17 tasi Taxtako'pirtumanida joylashgan.

**2018 yil 1 mart holatiga faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni**



**Sanoat statistikasi bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:

Aloqa telefoni:

T.Gulmurzaeva

(0371) 230-82-09